



ISHTIXON ETNIK ARABLARI SHEVASIDA UCHROVCHI BA'ZI ARABCHA SO'ZLAR IZOHI

Sadoqat Rajabova Rasul qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti

Folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasida tayanch doktoranti

sadoqatrajabova1993@gmail.com

958937993

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17374510>

Annotatsiya: tadqiqot ishida Ishtixon etnik arablari shevasida uchrovchi arabcha terminlar izohi keltirilgan. Asosan, hudud shevasidagina o'ziga xos qo'llaniluvchi arabcha "qabz qilmoq" so'zi izohlangan bo'lib, adabiy til va boshqa shevalarda ushbu so'z bir xil mazmunda "qabziyat" qo'llansa, hudud shevasida esa yuqoridagi ma'nodan tashqari "qabz qilmoq" "jon olmoq" ma'nosida yoshi kattalar nutqida qo'llaniladi. Bundan tashqari "saʒra" so'zi ham tadqiqotga tortilgan.

Kalit so'zi: arablar, etnik arablar, Ishtixon, qabz qilmoq, jon olmoq, saʒra, Samarqand, Markaziy Osiyo.

Markaziy Osiyo hududlarini arablar bosib olgandan keyin siyosiy, ijtimoiy, madaniy hamda diniy hayotda ko'pgina o'zgarishlar ro'y bergan. Ushbu hududlarda o'tkazilgan islohotlar arab tilining yoyilishi, mavqeyining yuqorilashi, ushbu hududlarda maktab, madrasalarda arabcha ta'limning joriy qilinishi, dinning yoyilishi, diniy kitoblarning ham arab tilida yozilganligi arab tilining keng yoyilishiga sabab bo'lgan. Arab tili Markaziy Osiyo hududida qariyb uch yuz yil mana shunday mavqeyda bo'lgan. Shuning uchun o'zbek shevalarining turli sohalarida ko'pgina arab tilidan o'zlashgan so'zlar mavjud. Ishtixon tumanida istiqomat qiluvchi o'zbeklashgan etnik arablar, avvalgi boblarda ta'kidlab o'tilganidek, bugungi kunda o'z ona tili bo'lgan arab tilida umuman gaplashishmaydi. O'zlari istiqomat qilib turgan hudud shevasini, ya'ni Ishtixon tumanining qipchoq shevasini o'zlashtirgan. Shuning uchun bugungi kunda arab tilidan faqatgina ma'lum darajadagina foydalanishadi, ya'ni o'zbek shevalariga o'zlashgan darajada foydalaniladi.

"O'zbek tilidagi arab tiliga mansub leksik birliklarni chuqur va atroflicha o'rgangan F.A. Abdullayevning yozishiga qaraganda, arab tilidan kirib o'zlashgan so'zlarining taqdiri tarixan turlichadir. Ayrimlari o'zlashib, hozirgi til tafakkurimiz nuqtayi nazaridan boshqa tildan o'zlashganligi sezilmaydi: *мамләкәт, довләт, қалам, вәтән...* Arab tilidan kirib kelgan leksik birliklar o'zbek tiliga, xususan, Buxoro o'guz shevalari leksikasiga shu darajada o'zlashib ketganki, biz bunday so'zlarni tamomila o'zlashtirib, o'z so'zimizdek turlayveramiz, yasovchi qo'shimchalar vositasi bilan ulardan yangi so'zlar yasaymiz: *ҳәләв +чи, пытнә+чи, дово+гәр...* arab tiliga mansub leksik birliklarning asosiy qismi ot turkumiga oid: *нәтә, мәл, сәвәл...*". [1]

N Shoimova Qashqadaryo shevasi leksikasini tadqiqiga oid dissertatsiya ishida ham Qashqadaryo shevasida uchrovchi arabcha o'zlashmalarning ko'pchiligi "...shevalarda esa arab tilidan kirgan so'zlar (ammo, lekin, balkim kabi) ba'zi bir yordamchi so'zlardan tashqari, asosan, ot turkumiga xosdir". [2]

Samarqand viloyati qipchoq shevalarini taqdiq etgan X Donyorov arab tilidan o'zlashgan so'zlar haqida: "Sharqiy gruppada shevalar leksikasidagi arabcha so'zlarni qo'llashdagi o'ziga xoslik shunda ko'rinadiki, bu shevalarda abstract terminlar juda kam uchraydi. Ularning borlari

ham, asosan, diniy-klerikal terminlardir. Masalan, *жаннат (жаннат), дозақ (дўзах), гўна (гуноҳ)*... sharqiy gruppaga shevalariga singib ketgan arabcha so'zlar ham anchagina. Masalan: *mulk, meros, ovqat, xabar* kabilar... sharqiy gruppaga shevalariga arab tilidan kirgan termin va tushunchalarning ikkinchi gruppasi diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lgan so'z va terminlardir. Misollar, *никә (никоҳ), нәтә (фотиҳа), намаз (номоз)*... Arabchadan qipchoq shevalariga kirgan so'z va terminlarning uchunchisi atoqli otlar bilan bog'liq bo'lgan so'z va terminlardir. Misollar: *Äнтикәрим (Абдукарим), Äбдирайим (Абдурахим)*...[3]

Ishtixon etnik arablari yashaydigan hududda qo'llaniluvchi arabcha so'zlar quyidagi xususiyatlarga ega: 1) o'zbek adabiy tilda qo'llaniluvchi fonetik o'zgarishga uchramagan so'zlar : *kibr, käsäl, laqab, mänzärä, mänzil, mulk, näzär, nur, näsl, bädäl* va boshqalar. 2) o'zbek adabiy tilda qo'llaniluvchi fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar :

T/r	Shevada	Adabiy tilda
2	apzal	afzal
3	bälä	balo
4	viždan	vijson
5	vaxt	vaqt
6	däp	daf
7	žovr	jabr
8	zürijät	zurriyot
9	ixlas	ixlos
10	mäjtäb	maktab
11	mälim	muallim
12	sovab	savob
13	ädät	odat
14	sayat	soat
15	parayat	farog'at
16	sälämät	salomat
17	tämäšä	tomosha
18	päjdä	foyda
19	uväl	uvol
20	urp	urf

Shevada ba'zi yoshi katta aholi vakillari tilimizda uchrovchi "*jon olmoq*" iborasi o'rnida "*jonini qabz qilmoq*" iborasini qo'llashining guvohi bo'ldik. Bu so'z Samarqandning boshqa hududlarida qo'llanilmaydi. Mana shu hududgagina xos bo'lib ibora tarkibidagi "**qabz**" so'zi arabcha so'z bo'lib "olish; tutish; siqimlash; tutamlash; to'xtatib qolish" [19] degan ma'nolarni anglatadi. Arabchadan o'zlashgan bu so'z o'zida anglashilgan ma'noni saqlab qolgan holda shevaga singib ketgan.

Ällähdän xabar kegan Bodej bovaga žanijni qabz qilaman deydi. Ollohda xabar kelgan Bo'dey buvaga joningni olaman deydi. (To'ychiyeva B)

Matnda "***žanijni qabz qilaman***" ya'ni "joningni olaman", "joningni tutib turaman" degan ma'nolarni anglatadi.

Bu soʻzning maʼnosi Ollahning goʻzal ismlaridagi “Al Qobiz ” isminining maʼnosiga ham borib taqaladi. Diniy manbalarda shunday taʼrif berilgan “«Al-Qobiz» ismi ruhlarni qabz qiluvchi, xohlagan kishining rizqini qabz qiluvchi, qalblarni qabz qiluvchi degan maʼnolarni anglatadi. Allohning ushbu ismi sahih hadislarida kelgan, ammo Qurʼoni Karimda zikr qilinmagan. Anas ibn Molikdan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasollam: «Alloh narx belgilovchi, ruhlarni qabz qiluvchi, ruhlarni kenglikka qoʻyib yuboruvchi va rizq beruvchidir. Men har bir kishi qon va mol xususida zulm bilan talab etmagan holda Allohga yoʻliqadi deb umid qilaman”, deganlar” (Abu Dovud va Termiziy rivoyati).

Alloh taolo oʻzining lutfi va hikmati bilan bandalarining rizqlarini tutib turadi. Belgilangan ajal yetib kelganda esa oʻzining amri va qudrati bilan ularning ruhlarini qabz qiladi. Imtihon qilib, sinash uchun bir qavmning rizq sabablarini tor, boshqa bir qavmning rizqini esa keng qiladi. Biz bandalar uni nima uchun tor yoki nima uchun keng qilganining sababini bilmaymiz. Masalan, baʼzi oʻlkalarda yomgʻir koʻp yogʻib, ekinlar serhosil boʻladi. Boshqasida esa yomgʻir kam yogʻib, qurgʻoqchilik boʻladi, natijada oʻsimliklar va hayvonlar qirilib ketadi”. [14]

Shevada qoʻllaniluvchi *sāžrā* soʻzi adabiy tildagi *shajara* soʻzining fonetik oʻzgargan hudud shevasiga moslangan varianti hisoblanadi. Shajara soʻzi arabcha soʻz boʻlib izohli lugʻatda “maʼlum bir urugʻ avlodlarning kelib chiqishi va oʻzaro qarindoshlik darajasini izchillik bilan koʻrsatuvchi roʻyxat, tarix, silsila” [18] boʻlib avlodlar ketma- ketligini, izchilligini silsila hisoblanadi.

Bizārdi sāžrā bogān, sāžrādā barlar qurejš āräblāridān bogān, bi sāžrāni qejdāligini hazi heč kim bilmejdi. // Bizlarda shajara (kitob) boʻlgan, shajara kitobda bor (shaxs)lar qurayish arablaridan boʻlgan, bu shajara (kitob)ni qayerda ekanligini hozir hech kim bilmaydi. (Raimov R)

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, ushbu hudud vakillari yaʼni etnik arablar arab tilini toʻliqligicha saqlab qolmagan. Ular nutqida qoʻllaniluvchi arabcha soʻzlar oʻzbek adabiy tilidagi oʻzlashma soʻzlar bilan miqdori, deyarli, teng hisoblanadi. Faqatgina, baʼzi bir soʻzlarga “qabz qilmoq” va “sāžrā” kabi soʻzlar mana shu hududgagina xos holda qoʻllaniladi. “Qabz qilmoq” soʻzi 2 xil maʼnoda qoʻllanilar ekan 1. adabiy tilda qoʻllaniluvchi “qabziyat”, 2. faqatgina yoshi kattalar diniy mavzularda suhbatlashganda qoʻllaniladi, yaʼni “jonni tutib turish”, “jonni olish” maʼnosida qoʻllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. А. Аллабердиев. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси. – Т.2018. Б-34.
2. Н. Шоимова. Ўрта Қашқадарё қипчоқ шевалари лексикаси. – Т.1999. Б-110.
3. Х. Дониёров. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Т.1979. Б 78-79.
4. Ashirboyev, S. Oʻzbek dialektologiyasi. Toshkent: Nodirabegim, 2021
5. Поливанов Е.Д. Вокализм говора города Самарқанд // Доклады АН. СССР, М, 1928. №14.
6. М.Валиев. Ўзбек тилининг Найман шеваси. –С.1963.
7. Н.Ражабов. Ўзбек тилининг ғарбий Самарқанд шевалари. –С.1977.
8. В.Эгамов. Самарқанд областининг Ғаллаорол шеваси. –С.1954.



9. З Тиллаева. Самарқанд шаҳри ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари. — С., 2023. — Б.111
10. Гребункин А.Д. Мелкие народности Зарафшанского округа // Русский Туркестан. Сборник, изданный по поводу политехнической выставки. Вып.2. – М, 1872. – С.113-114.
11. Қораев С. Этнонимика. – Т.: Ўзбекистон, 1979. – С. 12-13.
12. Ражабов Р. Ўзбекистондаги араблар тарихи ва этнографияси. – Т. 2012.-Б.154.
14. Islom.uz
15. O'zbek tilining izohli lug'ati.—T, 2022, I jild, —B. 964.
16. O'zbek tilining izohli lug'ati.—T, 2022, II jild, —B. 1036.
17. O'zbek tilining izohli lug'ati.—T, 2022, III jild, —B.844.
18. O'zbek tilining izohli lug'ati.—T, 2022, IV jild, —B.824.
19. O'zbek tilining izohli lug'ati.—T, 2022, V jild, —B.720.
20. O'zbek tilining izohli lug'ati.—T, 2022, VI jild, —B.864.